



THE PHILOSOPHICAL ROLE OF INTELLECTUAL IDEOLOGY IN BUILDING A NEW UZBEKISTAN

Abdukhil Sodiqov

independent researcher, intern-lecturer

Namangan State Pedagogical Institute

*Namangan State Institute of Foreign Languages named after Ishoqxon Ibrat
Namangan, Uzbekistan*

E-mail: sodiqovabduhalil1993@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: intellectuals' ideology, spiritual potential, national values, intellectual development, philosophical role, new Uzbekistan, critical thinking, science, enlightenment, youth education.

Received: 31.03.25

Accepted: 02.04.25

Published: 04.04.25

Abstract: This article analyzes the philosophical role of intellectuals' ideology in the development of modern Uzbek society. The research reveals the intellectual, spiritual, cultural, and political functions of intellectuals in society. The author highlights the main directions of intellectuals' ideology, their importance in the development of society, and their role in building a new Uzbekistan. The article analyzes such issues as the scientific and educational activities of intellectuals, their role in preserving and developing national values, and their influence on renewing the thinking of youth. The research results show the philosophical aspects of intellectuals' ideology, its importance in shaping the national development strategy, and future prospects.

YANGI O'ZBEKİSTONNI QURISHDA ZİYOLİLAR MAFKURASINING FALSAFIY ROLI

Abduhalil Sodiqov

mustaqil tadqiqotchi, stajyor-o 'qituvchi

Namangan davlat pedagogika instituti

*Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan Davlat chet tillari instituti
Namangan, O'zbekiston*

E-mail: sodiqovabduhalil1993@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ziyolilar mafkurasi, ma'nnaviy salohiyat, milliy qadriyatlar, intellektual rivojlanish, falsafiy rol, yangi ziyolilar mafkurasining falsafiy roli tahlil

Annotatsiya: Ushbu maqlolada zamонавиyy
O'zbekiston jamiyatini rivojlantirishda
falsafiy roli tahlil

O‘zbekiston, tanqidiy tafakkur, ilm-fan, ma'rifat, yoshlar tarbiyasi.

qilingan. Tadqiqotda ziylolarning jamiyatdagi intellektual, ma'naviy, madaniy va siyosiy funksiyalari olib berilgan. Muallif ziylolar mafkurasining asosiy yo‘nalishlari, ularning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va yangi O‘zbekistonni barpo etishdagi rolini yoritib bergen. Maqlada ziylolarning ilmiy-ma'rifiy faoliyati, milliy qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirishdagi o‘rni, yoshlar tafakkurini yangilashdagi ta’siri kabi masalalar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalarida ziylolar mafkurasining falsafiy jihatlari, uning milliy taraqqiyot strategiyasini shakllantirishdagi ahamiyati va kelajak istiqbollari ko‘rsatib berilgan.

ФИЛОСОФСКАЯ РОЛЬ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ ИДЕОЛОГИИ В ПОСТРОЕНИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Абдухалил Садиков

независимый исследователь, преподаватель-стажер

Наманганский государственный педагогический институт

Наманганский государственный институт иностранных языков имени Исхак Хана Ибрагимова

Наманган, Узбекистан

E-mail: sodikovabduhalil1993@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: идеология интеллигенции, духовный потенциал, национальные ценности, интеллектуальное развитие, философская роль, новый Узбекистан, критическое мышление, наука, просвещение, воспитание молодежи.

Аннотация: В данной статье анализируется философская роль интеллигенции в развитии современного узбекского общества. В исследовании раскрываются интеллектуальные, духовные, культурные и политические функции интеллигенции в обществе. Автор освещает основные направления идеологии интеллигенции, их значение в развитии общества и роль в построении нового Узбекистана. В статье анализируются такие вопросы, как научно-просветительская деятельность интеллигенции, ее роль в сохранении и развитии национальных ценностей, влияние на обновление мышления молодежи. В результатах исследования показаны философские аспекты идеологии интеллигенции, ее значение в формировании стратегии национального развития и перспективы на будущее.

KIRISH. Har bir jamiyatning taraqqiyoti, uning kelajagi va xalq farovonligi bevosita inson kapitaliga, ya’ni xalqning intellektual va ma’naviy salohiyatiga bog‘liq. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z asarlari, nutqlari va ma’ruzalarida jamiyat rivojining ustuvor yo‘nalishlarini chuqur tahlil qilib, taraqqiyotning asosiy omili sifatida inson omiliga alohida e’tibor qaratmoqda. Uning Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqida aytgan “Bizning eng katta boyligimiz – bu xalqimizning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir” degan fikri mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning asosiy g‘oyalaridan biriga aylangan. Ushbu fikrga tayangan holda, jamiyatning rivojlanishida ilm-fan, ta’lim, innovatsiya va milliy qadriyatlarning o‘rni, shuningdek, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishning ahamiyati haqida mulohaza yuritish mumkin. Prezidentimizning ushbu tamoyili nafaqat mamlakatimizning bugungi kunini, balki kelajak istiqbollarini ham belgilab beradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ziyolilar mafkurasini nazariy metodologik qismini asoslashda taqqoslash va qiyoslash usuli samarali usullardan biri hisoblanib, bu usul inson tafakkurining ajralmas qismi, borliqni idrok etish va tahlil qilishning muhim vositasidir. Har qanday narsa yoki hodisaning mohiyati uning ziddi orqali yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu haqida N. Ibotova Shunday deydi: “Ma’lumki, falsafada ham, adabiyot va san’atda ham, fanning boshqa tarmoqlarida ham yetakchi ustuvor yo‘nalish – taqqoslash, qiyoslash usuli mavjud. Har bir narsaning mavjud bo‘lishi uchun uning ziddi bo‘lishi isbot talab qilmaydigan aksioma, issiqsovuv, oq-qora, yer-osmon, halol-harom, yaxshiyomon, do’st-dushman va hokazo. Bu sifatdan tashqari materiyada ashayoning mavjudlik kasb etishi mumkin emas va ayni chog‘da narsalarning mohiyati ularning ziddi orqali ayonlashadi, xususiyatlari va o‘ziga xosliklari namoyon bo‘ladi. Sharq va G‘arb falsafasida birdek keng qo‘llaniladigan bu metod xususiylik va umumiylilik, sabab va oqibat, talab va taklif kategoriyalari bilan bog‘liq.” Ibotovaning aytishicha, dunyonи, hodisalarни va ularning mohiyatini tushunish uchun taqqoslash va ziddiyat tamoyillaridan foydalanish zarur. Bu usul turli ilmiy va ijodiy yo‘nalishlarda keng qo‘llanilib, tahlil va tushunish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Shunday ean biz ham tadqiqotimiz davomida Ziyolilik tushunchasini uning zidi hisoblanmish savodsizlik tushunchasi bilan taqqoslab o‘tamiz. Savodsizlik esa bilimga nisbatan befarqlik, fikrlash torligi va yangilikka qarshilik bilan tavsiflanadi. Savodsizlik inson tafakkurini chegaralab, uni o‘z fikrlash qobiliyatidan foydalanish imkoniyatidan mahrum qiladi. Shu boisdan, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi uchun ziyolilar sonining ortishi muhim, aks holda, fikrlash chegaralanishi ortidan madaniy va ilmiy inqiroz yuzaga kelishi mumkin.

Falsafiy tafakkur taraqqiyotida O‘zbekistonda ziyolilikni targ‘ib etish va savodsizlikka barham berish yo‘lida tarixan muhim ishlar amalga oshirilgan. Xususan, sobiq mustabid tuzum

davrida, “O‘zbekiston SSR XKSning 1930-yil 23-avgustdagi «O‘zbekiston SSRning katta yoshdagi aholisi o‘rtasida savodsizlikni tugatish to‘g‘risida» qarorida respublikaning 16 dan 40 yoshgacha bo‘lgan barcha mehnatkash aholisining savodsizligini tugatish muddati etib 1932-yilning 31-dekabri belgilangan” Bu qaror O‘zbekistonda ta’lim va madaniyat rivoji yo‘lida tashlangan muhim qadam bo‘lib, kelgusida xalqning savodxonlik darajasini oshirishga xizmat qildi. Ushbu jarayon ziyolilikni shakllantirish, ilm-fan va madaniyat rivojiga zamin yaratish bilan birga, xalqning o‘zligini anglashiga ham turki bo‘ldi. Shu boisdan, ziyolilikni targ‘ib etish va savodsizlikka barham berish masalasi O‘zbekiston jamiyatining har bir bosqichida dolzarb bo‘lib kelgan va bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama. Ziyolilar mafkurasi — bu shunchaki ijtimoiy qatlam fikrini ifoda etishdan iborat emas, balki mamlakat rivojlanish strategiyasini belgilovchi muhim vosita hamdir. Bu mafkuraning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash va aholi ma’naviyatini yuksaltirish bilan bog‘liq. Ayniqsa, yangi O‘zbekiston sharoitida bu masala dolzarb bo‘lib, quyidagi omillarni o‘z ichiga oladi:

1. Milliy o‘zlikni anglash jarayoni — O‘zbekiston mustaqilligi yillarda milliy madaniyat va tarixni qayta tiklashga qaratilgan harakatlar ziyolilar mafkurasining shakllanishida muhim omil bo‘ldi.
2. Jamiyatning modernizatsiya ehtiyojlari — Raqamli transformatsiya, texnologiyalar rivoji va globallashuv sharoitida ziyolilarning yangi ijtimoiy vazifalari belgilandi.
3. Axborot davri talablari — Bugungi kunda mafkuraviy maqsadlarni axborot asrining o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirish zarurati paydo bo‘lmoqda.

Yangi O‘zbekiston ziyolilarining mafkurasi nafaqat milliy o‘zlikni anglash jarayonining bir qismi, balki jamiyatni ma’naviy yangilashning asosiy mexanizmidir. Ushbu mafkura asosida jamiyatning intellektual rivojlanishi, xalqning ma’rifiy salohiyatining oshishi va xalqaro miqyosda mamlakat nufuzining ortishi ta’milanadi. Zamонавиъи ziyolilarni qo’llab-quvvatlash va ularning g‘oyaviy faolligini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy ustunlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

U. Meyliyev ta’kidlaganidek: “Har qanday jamiyatning barqarorligi va taraqqiyoti uning ziyolilari – olimlar, o‘qituvchilar, ijodkorlar, madaniyat va san’at namoyandalari hamda fidoyi mutafakkirlariga bog‘liq. Ziyolilar – xalqning ma’naviy yetakchilari bo‘lib, jamiyatga ilm, ma’rifat va axloqiy qadriyatlarni singdirish orqali uni mustahkamlaydilar. Ularning faoliyati nafaqat bilim va tafakkur rivojiga xizmat qiladi, balki jamiyatni ma’naviy inqirozlardan himoya qiladi, uning ijtimoiy barqarorligi va taraqqiyotiga hissa qo’shadi.” Ta’kidlash joizki, ziyolilarning jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirchanligini oshirish, ularning fikr-mulohazalarini

hurmat qilish va ularni qo'llab-quvvatlash har qanday taraqqiy etuvchi jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi lozim. Zero, ziyorilar faqat bilim tarqatuvchilar emas, balki jamiyatni ravnaq sari yetaklovchi ma'naviy ustun hamdir.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayoni jamiyat hayotining barcha jabhalarini sifat jihatdan yangilashni talab etadi. Bu faqatgina iqtisodiy va texnologik rivojlanish bilangina cheklanib qolmay, balki inson tafakkuri, dunyoqarashi va mas'uliyat hissining o'sishi bilan ham bevosita bog'liqdir. Tadqiqotchi G. Abdurazzaqov ta'kidlaganidek: "Yangi O'zbekistonni barpo etish, jamiyatni sifat jihatdan yangilash – bu faqatgina ishlab chiqarish sifatini va mamlakat qiyofasini yaxshilashdangina iborat emas. Balki ana shu jarayonning faol subyekti, jumladan har bir yoshning o'z hayoti va faoliyatiga ongli va tanqidiy munosabatiga erishish hamdir. Yosh xizmatchi yoki tadbirkorning o'zi, oilasi, hamkasbleri va jamiyat oldidagi mas'uliyati, ishiga tanqidiy nazar bilan qarashi – bularning barchasi aslida har bir yosh ongida o'zgarish ro'y berayotgani, binobarin, uning tafakkuri sifat jihatdan yangilanishini ko'rsatadi". Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida yoshlarning tafakkurini sifat jihatdan yangilash muhim o'rinni tutadi. Ularning tanqidiy fikrlash qobiliyati, ijtimoiy mas'uliyati va kasbiy fidoyiligi nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatlarini, balki butun jamiyatning taraqqiyotini belgilaydi. Shu bois, yoshlarning o'z hayoti, faoliyati va jamiyat oldidagi burchlariga ongli yondashishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ularni zamonaviy bilim va mahorat bilan qurollantirish dolzarb vazifalardan biridir. Chunki tafakkurda yuz bergen har qanday ijobjiy o'zgarish jamiyatning barqaror rivojlanishi va milliy yuksalishiga xizmat qiladi. Bu jarayonda ziyorilarning roli beqiyosdir. Ziyorilar yosh avlodga ilm-ma'rifat, axloqiy qadriyatlar va tanqidiy tafakkurni singdirish orqali jamiyatni yangilashga bevosita hissa qo'shadilar. Ular yoshlarga nafaqat bilim, balki milliy ong, Vatanga sadoqat va fuqarolik mas'uliyati kabi fazilatlarni o'rgatib, jamiyatning ma'naviy poydevorini mustahkamlaydilar. Shu bois, ziyorilarning ilmiy-ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash va yoshlar bilan samarali muloqotini yo'lga qo'yish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining asosiy omillaridan biridir. Natijada, yoshlar va ziyorilar hamkorligida shakllangan sog'lom tafakkur va yuksak ma'naviyat barqaror rivojlanish sari ishonchli qadam bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonning mustaqil ravishda rivojlanishida va yangi jamiyat qurishda ziyorilarning mafkurasining falsafiy roli juda katta. Bu rolda ziyorilarning ma'rifat, ilm-fan, madaniyat, siyosat va axloqiy qadriyatlar kabi sohalarda tutgan o'rni nafaqat davlatning ichki taraqqiyotiga, balki uning global miqyosda raqobatbardoshligini ta'minlashga ham alohida ta'sir ko'rsatadi. Ziyorilar, o'z ilmiy, madaniy va ma'naviy xizmati orqali jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shadilar va yangi mafkura shakllanishiga asos soladilar.

1. Ziyolilarning jamiyatdagi intellektual roli: ziyolilarning asosiy vazifalaridan biri jamiyatni ma'rifat bilan yuksaltirishdir. Mustaqil O'zbekistonda yangi g'oyalar, ilm-fan va ta'lif sohalarida yuksak yutuqlarni qo'lga kiritish uchun ziyolilar, yangi avlodni tayyorlash, ularga bilim berish va ulardan jamiyatning har bir sohasida samarali foydalanish uchun imkoniyat yaratadilar. Ziyolilar, shuningdek, xalqni yangi ilmiy yutuqlar va innovatsiyalar haqida xabardor qilish orqali, ularni zamonaviy dunyo bilan tanishtirib, global miqyosda raqobatbardosh bo'lish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni rivojlanadir. Misol sifatida, O'zbekistonning ilg'or oliy o'quv yurtlaridagi ilmiy ishlar, yangi texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlar sohasidagi yutuqlarni ko'rsatish mumkin. Ziyolilar ilmiy innovatsiyalarni joriy etish, yangi dasturlarni ishlab chiqish va akademik aloqalarni kuchaytirish orqali davlatning bilim asosidagi rivojlanishini ta'minlaydilar.

2. Ziyolilarning siyosiy mafkuradagi o'rni: Ziyolilar o'zlarining mafkuralarini siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish uchun ham ishlatadilar. Ular o'z bilimlari va tajribalari orqali siyosiy tizimning shakllanishi, demokratik jarayonlarning rivojlanishi, huquqiy va adolatli jamiyatni yaratish uchun kerakli g'oyalarni ilgari suradilar. Ziyolilar, shuningdek, ijtimoiy adolat, tenglik, erkinlik va inson huquqlari kabi muhim masalalarni o'rtaqa qo'yish orqali, jamiyatda siyosiy tizimning to'g'ri ishlashiga yordam beradilar. Masalan: O'zbekistonning siyosiy islohotlari, yangi qonunlar va siyosiy tizimni yangilashdagi ziyolilarning roli. Ular nafaqat ilmiy, balki siyosiy jihatdan ham davlatga maslahatlar berib, zamonaviy demokratik tizimni tashkil etishda ishtirok etadilar.

3. Ziyolilarning madaniy roli: Ziyolilarning madaniy va san'ati, milliy identitetni saqlash va uni yangi avlodga etkazishda katta rol o'ynaydi. Madaniyatni targ'ib qilish, milliy qadriyatlarni hurmat qilish, adabiyot va san'atni rivojlanirish kabi masalalar ziyolilarning faoliyati doirasiga kiradi. O'zbekistonning o'ziga xos madaniy merosi, adabiyoti, san'ati va folklori yangi davrda yangicha talqin qilinishi kerak. Ziyolilarning madaniy roli, shuningdek, milliy qadriyatlarni asrab-avaylashda va xalqning o'ziga xos merosini saqlashda namoyon bo'ladi. Ular milliy o'zlikni mustahkamlash, yurtning tarixiy va madaniy boyliklarini hurmat qilishga, milliy birlikni saqlashga yordam beradi. Misol: O'zbekistonning adabiy va san'at sohalaridagi yutuqlar, yangi adabiyot va san'at asarlarini yaratish va ularni xalqaro miqyosda tanitish, shuningdek, milliy san'at va madaniyatni rivojlanirishni davom ettirish.

4. Ziyolilarning falsafiy g'oyalari: Falsafa, ziyolilarning asosiy faoliyatlaridan biri bo'lib, u jamiyatning ma'nnaviy, axloqiy va ijtimoiy tamoyillarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ziyolilar, jamiyatni axloqiy me'yorlar asosida boshqarish,adolat va tenglikni ta'minlash uchun

falsafiy g‘oyalarni ilgari suradilar. Ular, jamiyatning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan prinsiplar va qadriyatlarni ishlab chiqishda asosiy ro‘lni bajaradilar.

Ziyolilarning falsafiy g‘oyalari, inson huquqlari, erkinlik, tenglik, ijtimoiyadolat va barqaror rivojlanish kabi masalalarini o‘z ichiga oladi. Bu g‘oyalar, jamiyatni yaxshilash va uning ma’naviy salohiyatini oshirishga yordam beradi.

5. Ziyolilarning ta’limdagi o‘rni: Ta’lim va ilm-fan sohasida ziyolilar, xalqni ma’naviy va ilmiy jihatdan yuksaltirishda katta rol o‘ynaydi. Ular yangi g‘oyalar, ilmiy izlanishlar va texnologiyalarni jamiyatga kiritishda faol ishtirok etadilar. Ta’limning sifatini oshirish, ilmiy izlanishlarni kengaytirish va xalqni zamonaviy bilimlar bilan tanishtirish – bu ziyolilarning eng asosiy vazifalaridan biridir. O‘zbekistonning ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, yangi dasturlarni yaratish va ta’lim sifatini oshirishda ziyolilarning roli juda muhimdir. Bu jarayon davomida, ular xalqni yangicha fikrlashga, global me’yorlarga moslashishga va dunyoqarashni kengaytirishga o‘rgatadilar.

XULOSA. Ziyolilar mafkurasingin falsafiy roli Yangi O‘zbekistonni qurishda o‘ziga xos ahamiyatga ega. Yangi jamiyatni shakllantirishda ziyolilar nafaqat ilmiy yutuqlarni qo‘llab-quvvatlash, balki milliy qadriyatlarni, axloqiy me’yorlar va demokratik prinsiplarga tayangan g‘oyalarni ilgari surish, ularni jamiyatga singdirishda muhim rol o‘ynaydilar. Ziyolilar, o‘z mafkurasingda, milliy istiqlol g‘oyalarini ilgari surib, o‘z xalqining tarixiy va madaniy merosini saqlashni ta’minlashda muhim yutuqlarga erishishga intiladilar. Ziyolilar o‘z bilim va tajribalarini jamiyatga yetkazish orqali, xalqning fikrini shakllantiradi va uni yangi davr talablariga moslashtiradi. Ular, ayniqsa, ta’lim va ilm-fan sohalarida, mamlakatning ilmiy salohiyatini yuksaltirib, global miqyosda raqobatbardosh mamlakat qurish uchun zarur bo‘lgan zamonaviy bilimlarni yaratadilar. Yangi O‘zbekistonni qurish jarayonida, bu ilmiy, ma’naviy va ijtimoiy g‘oyalar keng ommaga yetkazilishi, har bir fuqaroni ma’rifatli va mas’uliyatli qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, ziyolilarning falsafiy roli, milliy va umumjahon qadriyatlarni uyg‘unlashtirishda, axloqiy me’yorlarni takomillashtirishda, shuningdek, ijtimoiy muvozanatni saqlashda ifodalanadi. Ziyolilarning jamiyatdagi rolini faqat ilmiy yoki madaniy kontekstda emas, balki ijtimoiy va siyosiy muhitda ham ko‘rish zarur. Ular jamiyatdaadolat, tenglik, huquqiy davlat tamoyillarini mustahkamlashda faol ishtirok etadilar, bu esa mamlakatning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. Ziyolilarning mafkuraviy g‘oyalari, demokratik, huquqiy, va ma’naviy jamiyatni qurish uchun zarur bo‘lgan poydevorni yaratadi. Ular o‘z faoliyatlarini davom ettirib, yangi O‘zbekistonni shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo‘lganadolatli, yuksak ma’naviyatga ega, bilimga asoslangan va dunyoqarashli jamiyatni yaratishga hissa qo‘shadilar. Natijada, ziyolilarning mafkura va falsafiy roli, nafaqat milliy

taraqqiyotning asosini, balki xalqning kelajakka bo‘lgan ishonchini shakllantiruvchi kuchga aylanadi. Yangi O‘zbekistonni qurishda, ziylolar o‘z fikr va g‘oyalarini keng ommaga etkazish orqali, jamiyatni rivojlantirishga bo‘lgan ulkan mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishadi va bu jarayon davomida ularning mafkuraviy ta’siri jamiyatda barqarorlik va taraqqiyotning asosiy yo‘nalishini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз.-Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти, <http://www.president.uz/uz/lists/view>
2. N. Ibotova “Ibrohim Mo‘minov ilmiy-falsafiy merosining umuminsoniy ahamiyati” Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati Buxoro – 2023.B –16
3. Собрание Узаконений и распоряжений Рабоче-Дехканского Правительства ЎзССР. 1930. №40. Часть 1. – Ташкент: Ўзнашр, 1930. – С. 1120-1121;
4. Фарғона ВДА, 131-фонд, 1-рўйхат, 293-иш, 73–74-вараклар.
5. Абдуразоқов Г. Мафкуравий омилларнинг Ўзбекистон ёшлари замонавий тафаккури шаклланишига таъсири (ижтимоий-фалсафий таҳлил) / doktorlik (PhD) dissertatsiyasi aftoreferati Бухоро – 2022. B-14